

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA
FANINI SAMARALI O'QITISH METODIKASI****Roziqova Farizoda Ruyiddin qizi ¹**¹ *Qarshi DU "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi**2-kurs iqtidorli guruh talabasi***B. Berdiyev ¹**¹ *Ilmiy rahbar: dots***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 17.03.2025**Revised: 18.03.2025**Accepted: 19.03.2025***KALIT SO'ZLAR:***matematika, ta'lim-
tarbiyaviy, fikrlashga,
ko'rgazmali qurollar,
metod, uslub,
texnologiya.**ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini qanday usullardan foydalanib o'qitilsa, samaraliroq natijaga olib borishi mumkinligi haqida fikr mulohaza keltirib o'tilgan. Dars jarayonida turli xil metodlardan foydalanish haqida gapirib o'tilgan.*

KIRISH. Matematikadan boshlang'ich ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o'qitish nazariyasini o'z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchining aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv uchun eng samarali usullarni q o'llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur. Boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish juda muhimdir.



Biz boshlang'ich sinflarda dars berar ekanmiz, bolalarning individual xususiyatlarini, qiziqishlarini, yoshini inobatga olgan holda dars jarayonini tashkil qilishimiz kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda o'qituvchilardan katta mahorat talab etadi. Negaki, matematika fanini 1-sinfanoq o'quvchilarga uni murakkab fan sifatida emas, balki eng kerakli hayotimiz davomida eng asqotadigan, qiziqarli fan sifatida k o'rsata bila olishimiz zarur. Buning uchun darsni tashkil qilishda quyidagilarga e'tibor berishimiz kerak:

1. Darsni qiziqarli o'tish kerak. Darsda o'quvchilarni fanga b o'lgan tasavvurlarini kengaytirish uchun turli xil metodik o'yinlardan foydalanish juda muhimdir. Misol uchun: "Zukkolar" o'yini. Bunda 3ta bayroqcha orqali sinfda o'zgacha, qiziqarli muhitni tashkil qila olishimiz mumkin. O'quvchilar bunda o'tilgan mavzuga doir bilimlarini mustahkamlab olishlari, tezkor fikrlashga o'rganishlari mumkin.

2. O'quvchilarga mavzuni sodda k o'rinishda tushuntirib bera olishimiz kerak. Chunki boshlang'ich sinfdanoq bolalarga matematikani murakkab fan sifatida k o'rsatsak, ularda faqat shu fikr qoladi. Biz o'quvchini "Matematika qiyin fan, murakkab misollari k o'p, masalarini yecha olmayman"-, degan tushunchalardan yiroq tutishimiz darkor. Bola uchun aniq belgilab q o'yilgan "qiyin" yoki "oson" degan tushuncha y o'q, aslida. Matematikami yoki til o'rganish, Bax yoki yosh bolalar musiqasimi, bir xil ohangdagi va bir turdagi kuy yoxud tovushlar uyg'unligimi -barchasi bir vaqtda o'rgatila boshlanishi mumkin. Gap qiyin yoki osonligida emas, bola uchun hammasi yangi. Faqat biz pedagoglar o'quvchilar ongiga shu tushunchasi singdirib q o'yiganmiz, holos.

3. Darsda k o'rgazmali qurollardan foydalanish. Matematika aniq fan, unda misol va masalalar b o'lishidan qat'i nazar darsni k o'rgazmali qurollar yordamida tashkil qilish matematikani zerikarli fan sifatidagi k o'rish tasavvurlarini y o'q qiladi. Misol uchun, oddiy darslikdagi misol va masalalarni o'quvchilarga vazifa sifatida topshirilayotganda "siniq tuxum", "muzqaymoqlar orolchasi" metodlaridan foydalanilsa, o'quvchilar uchun ham yangilik ham fanga b o'lgan qiziqishlarini yanada oshiruvchi vosita sifatida q o'llaniladi. Bu metodlarni qanday amalga oshirishga kelsak, o'qituvchi tomonidan rangli qog'ozlardan siniq tuxum shakli yasab olinadi va bir tomoniga mavzuga oid misol va masalar yozilgan b o'lsa, ikkinchi tomonida o'sha misol va masalalarning javobi, yokida xuddi shu misol va masalaning javobiga teng b o'lgan boshqa misol va masala yozilishi kerak. O'quvchilar singan tuxumni t o'g'ri birlashtirib javobni topishlari kerak b o'ladi." Muzqaymoqlar orolchasi" ham huddi shunday bajariladi. Bu o'quvchilarni bir xillikdan zerikishlarini

oldini olib, o'qituvchilari kabi kreativ inson b o'lib katta b o'lishlariga o'z hissini q o'shadi.



Bundan tashqari " Bilmasvoyning xatolari" metodi ham o'quvchilarga o'ziga b o'lgan ishonchini oshirib, yangidan yangi bilimlarni izlanishga chorlaydi. Bu metodda misollar xato k o'rsatilgan b o'lib unda o'quvchilar xatoni topib tuzatishlari kerak b o'ladi va bu ular uchun haqiqatdan k o'proq bilimlar egallashlari va kelajakda ham birovning xatolarini tuzata oladigan darajada b o'lishlari uchun motivatsiya b o'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Yangi O'zbekitoning asosiy ustuni - bilim, ta'lim va tarbiya b o'ladi",- deganlaridek, yangi o'sib kelayotgan yosh avlodga t o'g'ri ta'lim va tarbiya berishimiz, har bir fanning tub mohiyatini ochib

mukammal darajada bilim bera olishimiz darkor. Ayniqsa, bugungi kundagi yoshlarga turli xil metodlar bilan o'ziga xos uslublarda yangicha texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil qilishimiz yanada muvaffaqiyatli yoshlarni kashf etishimizga zamin yaratadi va bunday shaklda o'qitilgan o'quvchilar butun jahon minbarlarida yuqori o'rinlarda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi.(OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Turon-Iqbol", 2016 yil. 426 b.
2. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (OO'Y uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "O'qituvchi", 2004 yil.
3. Berdiyev B. R., Shodiyev R.D., "Interactive methods of assessment of knowledge on the basis of digital education on the subject "Information technology in education"". "International Journal Papier Public Review". Volume-1, Issue-2. Austria. 2020 114-118 p
4. Berdiyev B. R. "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini boshqarishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya "Fan va ta'lim" Qarshi – 2022 y 33-41 b.
5. Berdiyev B. R. "Matematika o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma "Fan va ta'lim" Qarshi – 2022 y 77-81 b.